O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI
MINISTRY OF TRANSPORT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O‘zbekiston Respublikasi, 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko‘chasi, 3-uy,
tel.: +99871 202-05-00, info@mintrans.uz, mintrans@exat.uz, www.mintrans.uz

2024-yil 5-iyul **№ 48**

Hurmatli xonimlar va janoblar!

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va shaxsan o'z nomimdan **20-Yubiley Xalqaro "Transport va logistika – TransLogistica Uzbekistan 2024" ko'rgazmasi** ishtirokchilarini qutlashga ijozat bering.

Mubolag'asiz, transport sanoati jahon iqtisodiyotining eng muhim arteriyasi bo'lib, ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilarni yakuniy iste'molchi bilan bog'laydi va xom ashyo hamda tayyor mahsulotlarni yetkazib berilishini ta'minlaydi. O'zgaruvchan geoiqtisodiy voqelikda transport va logistika zanjirlarining rivojlanishi katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston "Shimoliy-Janubiy" va "G'arbiy-Sharqiy" yo'nalishlarining kesishuvi joyida joylashgan bo'lib, transport sohasi va xorijiy hamkorlar bilan munosabatlarni mintaqaviy va kengaytirilgan kontekstda muvaffaqiyatli rivojlantirmoqda. Yangi transport koridorlari va yetkazib berish yo'nalishlarini izlash va rivojlantirish, logistika komponentini optimallashtirish ishlari olib borilmoqda.

TransLogistica Uzbekistan Respublikamizdagi eng yirik xalqaro transport ko'rgazmasi bo'lib, sanoatni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish tendentsiyalarini aks ettiradi va transport-logistika sohasidagi barcha xizmatlar va uskunalarni namoyish etadi.

Ishonchim komilki, ko'rgazmada ishtirok etish sizning biznesingizni yanada rivojlantirishga, biznes aloqalari va hamkorlik aloqalarini o'rnatishga, foydali kelishuvlarga erishishga xizmat qiladi.

Vazir **Maxkamov I. R.**